

**O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY VA TARIXIY MEROSNING SHAKLLANISHI****Sodiqjonova Mohlaroy Muhammadsoyib qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti,

Pedagogika fakulteti, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20174344>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy va tarixiy merosni tiklash jarayonlari tahlil qilinadi. Unda milliy qadriyatlar, tarixiy obidalar, buyuk ajdodlar merosi hamda nomoddiy madaniy merosni asrash va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida ma'naviy va tarixiy merosni tiklash jamiyatning barqaror rivojlanishi, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash va milliy o'zlikni anglashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy meros, tarixiy meros, milliy qadriyatlar, milliy o'zlik, madaniy meros, tarixiy obidalar, ma'naviyat, ta'lim, yoshlar tarbiyasi, globallasuv.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются процессы восстановления и развития духовного и исторического наследия в Узбекистане в годы независимости. Освещаются вопросы сохранения и развития национальных ценностей, исторических памятников, наследия великих предков, а также нематериального культурного наследия. В результате исследования обосновывается, что возрождение духовного и исторического наследия является важным фактором устойчивого развития общества, воспитания молодёжи в духе патриотизма и укрепления национальной идентичности.

**Ключевые слова:** духовное наследие, историческое наследие, национальные ценности, национальная идентичность, культурное наследие, исторические памятники, духовность, образование, воспитание молодёжи, глобализация

**ANNOTATION**

This article analyzes the processes of restoration and development of spiritual and historical heritage in Uzbekistan during the years of independence. It highlights issues related to the preservation and promotion of national values, historical monuments, the legacy of great ancestors, and intangible cultural heritage. The study concludes that the revival of spiritual and historical heritage is an important factor in ensuring sustainable development, fostering patriotic values among the younger generation, and strengthening national identity.

**Keywords:** spiritual heritage, historical heritage, national values, national identity, cultural heritage, historical monuments, spirituality, education, youth upbringing, globalization.

**Kirish**

O'zbekiston dunyodagi eng qadimiy va boy tarixga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Bu yurt qadim zamonlardan buyon ilm-fan, madaniyat, san'at va ma'rifat markazi sifatida mashhur bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy va tarixiy boyliklar bugungi kungacha xalqimizning bebaho merosi sifatida saqlanib kelmoqda. Ma'naviy meros deganda xalqning urf-odatlarini, an'analari, diniy qarashlari, ilm-fani, adabiyoti va axloqiy qadriyatlari tushuniladi. Tarixiy meros esa ajdodlarimizdan qolgan me'moriy obidalar, qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy yodgorliklar va madaniy boyliklarni o'z ichiga oladi.

O‘zbekiston hududi qadimda Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismi bo‘lganligi sababli bu yerda turli xalqlar va madaniyatlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalari nafaqat iqtisodiyotning, balki ilm-fan va madaniyatning ham rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Shu sababli Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Termiz kabi shaharlar yirik madaniy hamda ilmiy markazlarga aylangan.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Buxoriy va Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosi bugungi kunda ham dunyo miqyosida yuksak qadrlanadi. Ularning asarlari ilm-fan va ma‘naviyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar va tarixiy merosni tiklashga alohida e‘tibor berildi. Ko‘plab tarixiy obidalar qayta ta‘mirlandi, muzeylar va madaniyat markazlari faoliyati kengaytirildi. Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ajdodlar merosiga hurmat ruhini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi.

### **Asosiy qism**

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma‘naviy merosni qayta rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Sobiq tuzum davrida e‘tibordan chetda qolgan ko‘plab tarixiy qadriyatlar, buyuk ajdodlar merosi va milliy an‘analar qayta tiklandi. Bu jarayon xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga va ma‘naviy ildizlariga bo‘lgan hurmatini oshirdi. Mazkur mavzu ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Islom Karimov asarlarida milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning tiklanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etilgan. Uning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ma‘naviy merosni asrash va rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev nutq va ma‘ruzalarida “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida tarixiy merosni asrash va uni yoshlar ongiga singdirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham madaniy merosni saqlash, restavratsiya qilish, hamda nomoddiy merosni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy salohiyati va uning global miqyosdagi o‘rni tahlil qilingan.

O‘zbekistonda ma‘naviy va tarixiy merosni tiklash bir necha yo‘nalishda amalga oshirilmogda: moddiy merosni tiklash. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda joylashgan obidalar restavratsiya qilinib, xalqaro darajada e‘tirof etilmogda. UNESCO tomonidan bir qator obyektlar Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Buyuk ajdodlar merosini o‘rganish. Amir Temur, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy kabi buyuk shaxslarning ilmiy va ma‘naviy merosi keng tadqiq etilib, ularning nomlari abadiylashtirilmogda. Nomoddiy merosni rivojlantirish. Milliy bayramlar, urf-odatlar, an‘analar tiklanib, keng nishonlanmogda. Navro‘z bayrami xalqning birdamligini mustahkamlovchi muhim omilga aylandi. Ta‘lim tizimidagi islohotlar. Ta‘lim muassasalarida tarix va ma‘naviyatga oid fanlar kuchaytirildi. Bu yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga xizmat qilmogda.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ma‘naviy va tarixiy merosning tiklanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi va mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. UNESCO. World Heritage List and Cultural Heritage Documents. – Parij, 2019.
4. Rasulov A. O‘zbekistonda madaniy merosni saqlash masalalari. – Toshkent, 2020.